

Sharifjon Kenjaboyev,
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi,
sharifjonkenjaboev@gmail.com
UDK: 37.012

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING INDIVIDUAL KASBIY RIVOJLANISHI: TAJRIBA VA TADQIQOT

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda individual kasbiy rivojlanish murakkab jarayon ekanligi, o‘qituvchi shaxsiga har tomonlama ta’sir ko‘rsatish, pedagogik mahoratning o‘qituvchining individual ta’lim trayektoriyasida tutgan o‘rni xususida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: o‘qituvchi, individual kasbiy rivojlanish, kasbiy motivatsiya, shaxs intellekti, kasbiy tayyorgarlik, fan-texnika taraqqiyoti, mahorat, innovatsion faoliyat, tadqiqot, pedagogik mahorat.

Sharifjon Kenjaboyev,
Researcher of Namangan State University,
sharifjonkenjaboev@gmail.com

INDIVIDUAL PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF FUTURE TEACHERS: EXPERIENCE AND RESEARCH

Abstract: This article discusses the individual professional development of future teachers as a complex process, comprehensive impact on the teacher's personality, the role of pedagogical skills in the teacher's individual educational trajectory.

Key words: teacher, individual professional development, professional motivation, personal intelligence, professional training, scientific and technical development, skill, innovative activity, research, pedagogical skill.

Шарифжон Кенжабоев,
Научный сотрудник Наманганского государственного университета,
sharifjonkenjaboev@gmail.com

ИНДИВИДУАЛЬНОЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЕ РАЗВИТИЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ: ОПЫТ И ИССЛЕДОВАНИЯ

Аннотация: В данной статье рассматривается индивидуальное профессиональное становление будущего учителя как сложный процесс, всесторонне влияющий на личность учителя, роль педагогического мастерства в индивидуальной образовательной траектории учителя.

Ключевые слова: педагог, индивидуальное профессиональное развитие, профессиональная мотивация, личностный интеллект, профессиональная подготовка, научно-техническое развитие, мастерство,

ИННОВАЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ, ИССЛЕДОВАНИЯ, ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО.

Kirish

Hozirgi davrda pedagogika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarda individual kasbiy rivojlanishni baholashning diagnostik ta'minoti amalga oshirish ustuvor vazifalardan biri bo'lib, kasbiy bilimlarni shakllantirish, kasb faoliyatiga tayyorgarlikni takomillashtirish muammolarini kengroq o'rganish, kasbiy faoliyatga tayyorlashda talabaning imkoniyatlarini rivojlantirish maqsadlari, o'quv mazmunini tanlash va tuzishga ijodiy yondashuvni talab etadi. Ushbu vazifani mutaxassislarning kasbiy faoliyatga tayyorgarligi diagnostikasi mexanizmlarini takomillashtirish asosida talabalarni kasbiy shakllanish faoliyatini rivojlantirish orqali bajarish mumkin bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili

Kasbiy motivatsiya – inson ehtiyojlarining ortishi, uning faoliyati murakkablashishi, ilmiy-texnik taraqqiyot tufayli imkoniyatlar va motivlarning kengayishi, ta'lim jarayonida kasbni egallash motivatsiyasini shakllantirishdir.

Kasbiy kompetentlikni shakllantirish – kasb-hunarni egallash bilan bog'liq bo'lgan ehtiyojini rivojlantiruvchi, unga nisbatan ma'suliyatli hamda ijodiy yondashuvni, mehnat motivatsiyasini tarbiyalovchi hamda mutaxassislikka qaratilgan yo'nalish kasb etuvchi jarayonlar alohida tarkibiy qismlarining o'zaro integratsiyasida kasbiy shakllanishga erishish [1; 1055].

Shaxs intellektida kasbiy tayyorgarlik muhim o'rin egallaydi. Oliy ta'lim tizimi talabasi hayotda o'z o'rnini topishi, o'zi xohlagan kasb-hunarni egallashi hozirgi globallashuv davrida asosiy ahamiyat kasb etadi. Bo'lajak mutaxassislarning kasbiy faoliyatga tayyorgarligi diagnostikasi talabaning yangi qirralarini, imkoniyatlarini ochib beradi [2; 346-351].

Talabalarda ijtimoiy va kasbiy zarur fazilatlarni rivojlantirishning ahamiyati katta. Shaxsda ijtimoiy-kasbiy fazilatlarni rivojlantirish ijtimoiy faoliyat jarayonida sodir bo'lib, bunda shaxsning o'zgarishi, shakllanish va rivojlanishi jadal sur'atlar bilan boradi, tarbiyaviy jarayon subyektining faol ta'sirini tarbiyaviy ta'sir obyekti

o'zida jamlashtirishga intiladi. Mutaxassislarni muvafaqqiyati ko'proq kasbiy sifat va fazilatlarni shakllanganligiga bog'liq bo'lib, bu fazilatlarning rivojlanish jarayonini o'ziga xos bir usullar yordamida "o'lchab" borish pedagogikada muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim-tarbiya jarayonini tizimli amalga oshirish uchun talabada sodir bo'ladigan barcha o'zgarishlari pedagog tomonidan diagnostika qilib borilishi undagi ma'naviy-axloqiy fazilatlarlarning shakllanish va rivojlanish jarayoniga maqsadli pedagogik ta'sir qilish orqali rejalashtirilgan natijalarga kafolatli erishishni ta'minlaydi [3; 3-8].

Tahlillar va natijalar

Pedagog xodimlarning faoliyati tahlil qilinganda, ko'pchilik o'qituvchilar o'zlaridagi kamchiliklarni ko'ra olmasliklari, mutaxassisligimni yaxshi bilaman degan tasavvur qotib qolganligi sababli kasbiy rivojlana olmayotganligi ma'lum bo'ldi. Aksariyat holatlarda mutaxassisligim bo'yicha bilimlarim yetarli deb o'ylaydigan o'qituvchilarning o'sha bilimlari o'z ustida ishlamaganligi natijasida ancha eskirib qolgan bo'ladi. Vaholangki, o'qituvchi nafaqat dars o'tadigan fanini chuqur bilishi, balki zamon bilan hamnafas, fan-texnika taraqqiyotidan xabardor, tanqidiy, ijodiy fikrlaydigan, vaziyatni to'g'ri baholay oladigan psixolog, notiq, o'zgarishlarga moslashuvchan kuchli amaliyotchi bo'lishi lozim. Bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida o'qituvchi eng kerakli va zarur mahsulot ishlab chiqaruvchidir. Agar kreativ tadbirkor bozorning oldi oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarsa, o'qituvchi o'sha kreativ tadbirkorni shakllantiradi. Demak, o'qituvchi bilimli va mahoratli bo'lmas ekan, o'z-o'zidan aqlli tadbirkor ham bo'lmaydi, bu esa sifatli oziq-ovqat mahsulotlarisiz qolishimizga sabab bo'ladi. Birgina shu misolning o'zi orqali anglashimiz mumkinki, ta'lim sifatsiz bo'lsa insonlarning turmush tarzida, hayotning mohiyatini anglashida muammolar kelib chiqadi. Shu sababli jamiyat va davlat sifatli ta'limsiz taraqqiy etmaydi. Chunki o'qituvchi jamiyat uchun yetuk, aqlli insonlarni, davlat uchun salohiyatli, kreativ kadrlarni yetishtirib beradi. Shu nuqtai nazardan baho beradigan bo'lsak, o'qituvchining salohiyatidan ta'limning darajasi hech qachon yuqori bo'lmaydi. Ta'limni rivojlantirish uchun o'qituvchini o'stirish zarur. Ushbu jabhada yig'ilib

qolgan muammolarni bartaraf etish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

O'qituvchi shaxsiga har tomonlama ta'sir ko'rsatish tufayli odatda mohir o'qituvchida orqada qoluvchi o'quvchi bo'lmaydi. Mohir o'qituvchilar ilg'or pedagogik tajribani, hamma ta'lim va tarbiyaning nazariyasini o'rganadilar. Barcha yangiliklarni tushunib olishga, o'z tajribalari bilan solishtirib ko'rishga, ba'zilar o'z ishida tadbqiq qilishga, biror narsalarni qayta qurishga harakat qiladilar [4; 80].

Pedagogik mahorat – shaxsning pedagogik sifatlari majmui va o'qituvchi tomonidan kasbiy pedagogik faoliyatni mustaqil ravishda samarali tashkil etishni ta'minlash bo'lib, u pedagogning faoliyat mohirligini eng yuqori choqisiga erishganligini bildiradi. O'qituvchilik kasbi o'z mohiyatiga ko'ra o'ta individualdir. Har bir o'qituvchining muhim hayotiy o'rni, uning o'z ishining ustasi bo'lishidir. O'qituvchi mahorati uning faoliyatida ko'rinadi. O'qituvchi avvalo pedagogik jarayonning qonuniyatlari va mexanizmlarini yaxshi egallagan bo'lishi lozim. Shu ma'noda pedagogning umumlashgan malakalari va uning pedagogik texnikasi katta ahamiyatga molik bo'ladi.

Pedagogik mahorat asoslariga: kasbiy pedagogik bilimlar, insonparvarlikka yo'nalganlik, pedagogik texnika, kasbiy pedagogik faoliyatni amalga oshirish tajribasi, pedagog shaxsi taalluqlidir. Mahoratning shakllanish bosqichlariga: reproduktivlik (boshlang'ich), ijodiylik, ijodiy-novatorlik kiradi. Pedagogik mahorat darajalari o'qituvchi ish darajasining davomi hisoblanadi: reproduktiv (o'ta past); moslashuvchan (past); lokal (chegaralangan); modellashtirish (o'rtacha qoniqarli) [5; 223].

Pedagogik mahorat komponentlari kasbiy faoliyatga kasbiy vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan malaka nuqtai nazardagi qarashlarni aks ettiradi. Pedagogik mahorat komponentlarini hosil qiladigan quyidagi malaka guruhlarini farqlanadi: loyihalash; konstruksiyalash; tashkilotchilik; muloqot; bilish va reflektivlik. Keyingi yillarda pedagogik mahorat kategoriyasiga nisbatan yangicha qarashlar paydo bo'ldi. Pedagogik mahoratning an'anaviy izohlaridan bir qadar chekinish ham yuz berdi. Pedagogik bilimdonlik deganda konkret tarixiy davrda qabul qilingan me'yorlar (normalar), standartlar va talablarga muvofiq pedagogik

vazifani bajarishga qobillik va tayyorlik bilan belgilanadigan integral kasbiy-shaxsiy tavsifnoma tushuniladi.

Pedagogik bilimdonlik pedagogik sohada mahorat bilan ishlayotgan kishining ta'lim va tarbiya ishida insoniyat to'plagan barcha tajribalardan ratsional foydalanish qobiliyatini ko'zda tutar ekan, demak, u yetarli darajada pedagogik faoliyat va munosabatlarning maqsadga muvofiq usullari va shakllarini egallashi lozim bo'ladi.

Bo'lajak o'qituvchilarda individual kasbiy rivojlanish murakkab ko'rinishga ega jarayon bo'lib, kasbiy rivojlanishga ehtiyoj, qiziqish, motiv, faoliyat maqsadi, kasbiy ideallar, interiorizatsiyalarni o'z ichiga oladi. Fanda kasbiy ehtiyojlar inson faoliyatining faolligi sababi va manbai sifatida ko'rib chiqiladi. Kasbiy ehtiyojlar ikki bosqichda rivojlanadi:

1. Kasbiy ehtiyoj ichki faoliyat uchun yopiq sharoit sifatida xarakterlanadi, pedagogik qadriyat ehtiyojni qondirishga qodir bo'lib, kasbiy ideal sifatida maydonga chiqadi, buni amalga oshirish esa berilgan ehtiyojning real dunyoni bilish uchun bilimlarni taqqoslashni nazarda tutadi, bu esa berilgan ehtiyojning real dunyoni bilish uchun bilimlarni taqqoslashni nazarda tutadi, bu esa mana shu mavjud kasbiy ehtiyojni qondirish uchun vositalarni tanlashga yordam beradi.

2. Kasbiy ehtiyoj – real bir kuchdir, u insonning aniq bir faoliyatini boshqaradi. Bu yerda ehtiyoj bilan mazmun aniqlashtirilishib olinadi, u esa aynan tashqi reallikdan kirib keladi. O'z navbatida, ehtiyoj kasbiy faoliyatni jadallashtiradi va o'zining aniq natijasi bilan yakunlanadi.

Bo'lajak o'qituvchilarni individual-kasbiy rivojlanishida biografik ta'limning ahamiyati katta. Biografik ta'lim kattalar pedagogikasi (andragogika) da keng qo'llanilib, talabalar o'qish davomida har bir talabaning individual ta'lim olish trayektoriyasini shakllantirishdan iborat. Bu orqali talabalar o'zlari anglagan holda egallagan va egallamagan, shuningdek, ma'lum va noma'lum bilim, malaka, ko'nikma va kompetentsiyalarni tahlil qiladi va kasbiy, shaxsiy nuqtai nazaridan rivojlanish yo'nalishlarini belgilab oladi. Bundan maqsad keyingi ta'lim jarayonlari uchun maqsadlarni shakllantirish, o'zining "kuchsiz tomonlarini" tahlil

qilib borish, shu orqali rivojlanish jarayonini tezlashtirish va samaradorligini oshirishdir.

Biografik ta'lim talabalarining o'zlashtirish darajasi, imkoniyatlaridan kelib chiqib o'zlashtirishga va o'z-o'zini monitoring qilish uchun ham ahamiyatli [6; 33-42]. Oliy ta'lim muassasalari talabalarining individual kasbiy rivojlanishida biografik ta'limni joriy etish uchun bakalavr bosqichi talabarlari 4 yil davomida o'zlashtirishi lozim bo'lgan faoliyatga doir barcha bilim, ko'nikma, malaka va kompetentsiyalar, faoliyatga doir barcha mavzular, faoliyatning ijtimoiy-huquqiy jihatlarini, faoliyat uchun zaruriy shaxsiy xususiyatlar batafsil bayon etiladi va talabalar uchun uslubiy qo'llanma sifatida foydalanish uchun taqdim etiladi.

Xulosa

Talabalar muntazam ravishda o'zlarining individual o'zlashtirish trayektoriyasini belgilab boradi. O'quv yilining yakunida ma'sul oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisi tomonidan refleksiv suhbat tashkil etiladi. Suhbatda individual-kasbiy rivojlanish jarayoni asosida biografik ta'limning samaradorligi baholanadi va yuqori samaradorlikka erishish imkoniyatlari muhokama qilinadi. Shu asosda talabalar mustaqil ravishda bo'lajak faoliyatga tayyorgarlik ko'rib boradi. Mustaqil ravishda maqsadli o'qish, o'zini rivojlantirish uchun shaxsiy rejalar tuzishda ham biografik ta'lim samarali hisoblanadi. Biografik ta'lim talabalarga metodik jihatdan ham samarali bo'lib, bu orqali ular kasbiy faoliyatga, ma'lum lavozimlarga tayyorlanish bosqichlarida ham keng qo'llashi mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Бекоева М.И. Принципы и этапы реализации педагогической диагностики // Современные проблемы науки и образования. – 2015. – № 1-1. – С. 1055.
2. Золотых Н.В. Основные принципы педагогической диагностики в оценке учебных достижений обучающихся // Вестник учебно-методического объединения по профессионально-педагогическому образованию. – 2015. – № 2 (49). – С. 346-351.
3. Калдыбаев С.К. Основные принципы педагогической диагностики в оценке учебных достижений обучающихся // Известия Кыргызской академии наук. – 2015. – № 1 (33). – С. 3-8.

4. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi. “Nasaf”, 2000. – 80 b.
5. Umataliev Z. Mediavaxfsizlik ishlarimiz kelajagining poydevori sifatida. – T.: 2017. – 223 b.
6. Schlueter A. Biographical learning as part of the course to professionalize adult education? // Report 4/2008 (31. Jg.). – 33-42 p.